

4- SINFDA ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASHDA AMALIY TOPSHIRIQLAR ORQALI O'QUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'limga
yo'nalishi 3-kurs talabasi Urazova Guli**

Annotatsiya: Ushbu maqolada amaliy topshiriqlardan foydalangan holda o'quvchilarda lug'at boyligini oshirish hamda nutq madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: lug'at, izohli lug'at, amaliy topshiriqlar, lisoniy lug'atlar, ensiklopedik lug'atlar, ta'limga, Bir daqiqa.

INCREASING LEARNING EFFICIENCY THROUGH PRACTICAL TASKS WHEN WORKING ON VOCABULARY IN MOTHER LANGUAGE CLASSES IN 4TH CLASS

**Urganch State University Faculty of Pedagogy, Primary Education, 3rd year
student Urazova Guli**

Abstract. This article aims to increase students' vocabulary and form speech culture using practical tasks.

Key words: dictionary, explanatory dictionary, practical assignments, linguistic dictionaries, encyclopedic dictionaries, education, One minute.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ С ПОМОЩЬЮ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ ПРИ РАБОТЕ НАД ЛЕКСИКО НА ЗАНЯТИЯХ РОДНОГО ЯЗЫКА В 4 КЛАССЕ

Ургенчский государственный университет Факультет педагогики, начальное образование, студентка 3 курса Уразова Гули

Аннотация: Данная статья направлена на увеличение словарного запаса учащихся и формирование культуры речи с помощью практических заданий.

Ключевые слова: словарь, толковый словарь, практические задания, лингвистические словари, энциклопедические словари, обучение, Одна минута.

Bugungi kunda yurtimizdagi “Kadrlash tayyorlash miliy dasturi”, “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonunlar asosida boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish oldiga bir qator vazifalar qo‘ymoqda. Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida “ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘sirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir” deyiladi. Ona tilini o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Ona tili- millat ruhidir. Tilni asrash, rivojlantirish orqali millat yuksaladi, ravnaq topadi. Tilimizning lug‘at tarkibi xalqning turmush tarzi, madaniyati va an’anasini ifodalaydigan so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi.

Lug‘atlar qadimgi davrlarda paydo bolgan. Lug‘atlar hajmi, tuzilishi, masadi, vazifasiga ko‘ra turlichadir. Bir nechta xususiyatlariga kora ikki turga bo‘linadi:

1)lisoniy lug‘atlar

2)qomusiy (ensiklopedik)lug‘atlar

Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlarda qadimiyligi, tarixiy voqeasi va hodisalar, buyuk, taniqli shaxslar, mamlakatlar, davlatlar, tabiat va jamiyatdagi ro‘y berayotgan hodisalar, ilm-fandagi yutuqlar haqida ma’lumotlar berilgan bo‘ladi. Lisoniy lug‘atarning ob’ekti esa so‘zlardir. Bunday lug‘atlar so‘zlarning semantikasi, grammatik xususiyatlari, imlosi, talaffuzi, tarixi va taraqqiyoti, kelib chiqishi haqida ma’lumot beradi. Lisoniy lug‘atlarda so‘z ma’nolari, imlosi, talaffuzi,

iboralar, xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. Demak, lisoniy lug'atlarda til va nutq birliklari, til kategoriyalari haqida ma'lumot berish, maqol va matal kabi janr boyliklarini toplash maqsad qilinadi. O'zbek lug'atchiligi tarixida qomusiy lug'atlarni yaratishga 1950-yillardan e'tibor qaratila boshlandi.

Boshlang'ich ta'lim 4-sinflarda ona tili darslarida lug'at ustida ishlashda quyidagicha amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-amaliy topshiriq. Bir daqiqa metodidan foydalanish mumkin. Salomlashganingizdan so'ng o'quvchilarga "**BIR DAQIQA**" o'yinini o'tkazamiz deb e'lon qilasiz. Ularga 1 daqiqani ichida mavzuungizga doir izohli lug'atlarni topib 5 ta misol yozing deb aytasiz. Bu orqali o'quvchilar mavzuni qisman o'zlashtirib oladilar. Bu metod o'quvchilarni:

1. Qisqa vaqt ni ichida diqqatini jamlaydi
2. Ularni tez fikrlashga o'rgatadi
3. Darsingizni boshlashingiz uchun o'quvchilaringizni ongini miya hujayralarini ochib, bergan ma'lumotlarizni darhol qabul qilishga o'quvchini tayyorlaydi
4. Tezlikda ishlashni o'rgatadi
5. Fikrlarini yozish orqali yozma savodxonligi oshadi
6. Ortiqcha baqir-chaqirsiz sinfni tezda tinchlantirib o'quvchilarni o'zingizga osongina jalb etasiz.
7. 1 daqiqa vaqt tugagandan so'ng javoblarni o'qitganingizda o'quvchilar bir-birlarini g'oyalarini tinglab bahslashishadi bu esa o'quvchini o'z fikrini aytishi olishga undaydi.

2-amaliy topshiriq. Jadvalda izohli lug'at berilgan. So'zlarni mosini topib birlashtiring.

| | | |
|------------|--|---|
| Tug‘ro | | Belgi, izn |
| Qopqa | | Hikmatli so‘z |
| Nishon | | Meshda suv tashuvchi |
| Shon | | Qobiliyat |
| Naql | | Darvoza |
| Meshkobchi | | Sozanda |
| Salohiyat | | Shuhrat, dong |
| Mashshoq | | Gerb. O‘zbekiston Respublikasining davlat ramzlaridan biri. |

3-amaliy topshiriq. **Find definition metodi.** Ushbu amaliy topshiriqni o‘tkazishda doska, so‘zlar yozilgan kartochkalar kerak bo‘ladi. Doskaga yopishtirilib qo‘yiladi. O‘quvchilarni 2 ta guruhga bo‘lib olishimiz zarur. Ushbu o‘yin musobaqa tarzida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ta’rifini o‘qiydi, o‘quvchilar esa tezlik bilan ta’rifi yozilgan so‘zni olishlari shart. Masalan: o‘quv quroli, xato yozib qo‘ysak o‘chirish uchun foydalananamiz deb aytiladi. O‘quvchilar esa tezlikda o‘chirg‘ich so‘zini topib, olishlari zarur bo‘ladi.

4-amaliy topshiriq.

“Ha” yoki “Yo‘q” o‘yini. So‘zlar o‘quvchilarga izohi bilan birga o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar izoh to‘g‘ri bo‘lsa, “Ha”, noto‘g‘ri bo‘lsa, “Yo‘q” deb javob beradilar va noto‘g‘ri izohni to‘g‘rilaydilar.

Hozirgi kunda lug`atlar ustida ishslash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. Lug`atlar bilan ishslash, asosan, ona tili va o`qish darslari bilan bog`liq holda olib boriladi. Agar lug`at ishlari qat`iy bir reja asosida yo`lga qo`yilsa, o‘qituvchilardan

ham, o`quvchilardan ham ortiqcha mehnat talab qilinmaydi va ko`zlangan natijaga oson erishiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, lug`atlar bilan ishlash mashqlarini bajarganda ko`proq o`quvchilarining so`z boyligi oshadi, fikrlash qobiliyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvahob Madvaliyev "o'zbek tilining izohli lug'ati" toshkent-2021.
2. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro.
3. Matchonov S., Bakiyeva, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlag`ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T., Ishonch hamkor. 2021
4. Umumi o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf ona tili darsligi "O'QITUVCHI" Toshkent-2017.